

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА О'ЗБЕК МИЛЛИЙ ХАРАКАТЛИ О'YINLARNI TASHKIL QILISH

Murodov Firuz Obidovich

*Buxoro pedagogika kolleji Bolalar jismoniy tarbiyasi
va sog'lom turmush tarzi fani o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'zbek milliy harakatli o'yinlarni tashkil qilish va harakatli o'yinlarni qo'llash orqali jismoniy sifatlarni tarbiyalashda jismoniy tarbiya vositasi sifatida harakatli o'yinlardan foydalanish va shu asosida maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirish usullari yoritilgan

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, harakatli o'yin, harakat faoliyati, harakat sifati, jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, jismoniy sifat, sog'lomlashtirish, qobiliyat.

Mustaqillik sharofati tufayli jismoniy tarbiya va sport sohasida keng istiqbollar ochilmoqda, bu ayniqsa xalqning milliy harakatli o'yinlari va mashqlari, sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darslarida namoyon bo'lmoqda. Maktabgacha tarbiyani insonparvarlashtirish uni yangilash jarayonining asosi hisoblanadi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishning yosh xususiyatlari belgilab berildi, ularni maktabgacha ta'lim muassasasi sharoitida rivojlantirish nazariy hamda tajriba yo'li bilan asoslab beriladi, buning uchun quyidagilar aniqlandi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasida harakatli o'yinlarni qo'llash asosida jismoniy sifatlar jarayonlarni rivojlantirishning yosh xususiyatlari;
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy jismoniy sifatlari orasidagi o'zaro bog'liqligiga doir qonuniyatlar;
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlari va rivojiga ta'sir o'tkazish tamoyili bo'yicha vosita hamda uslublari.

Harakatli o'yinlarni tanlab olishda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olishi hamda jismoniy mashqlarni mos ravishda belgilay olishi kerak. Bola 7 yoshga yetib, maktabga qadam qo'yganda uning tayyorgarlik darajasini hisobga olish zarur. Masalan, sakrash o'yinlari o'tkazishda ehtiyyotkorlik talab etiladi. Avvalo bolani sakrash usullariga, jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga o'rgatish lozim. Albatta, bog'cha bolalarining harakat ko'nikmasi va malakasini rivojlantirish harakat uslubini chuqurroq o'rgatishda emas. Masalan, bolalar uzunlikka yugurib kelib, sakrashga o'rgatiladigan bo'lsa, avval ularni sakrash oldidan birdaniga to'xtab qolmaslikka,

yugurishni sekinlashtirmaslikka, sakrashdan oldin bir oyoqda depsinib, ikkala oyoq bilan yumshoq tushishga o'rgatish lozim. Faqat shundan so'ng sakrash o'yinlariga o'tilsa bo'ladi. Chunki bu kabi o'yinlar tufayli bolalarda sakrash uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni hosil qilish mumkin. Bundan tashqari, bunday harakatli o'yinlar chaqqonlik, jasurlik kabi jismoniy xususiyatlarni ham rivojlantiradi. Harakatli o'yinlarni tanlab olishda, eng avvalo, tarbiyachi kitob va qo'llanmalarda berilgan o'yinlarning jismoniy va ruhiy ta'siri jihatlarini biliishi kerak. Yana shuni unutmaslik kerakki, o'yin vazifasi qo'yilganda faqat harakatlarga mos bo'lishi shart emas, balki harakatli o'yinlar yordamida bolalar ruhiyatida bir-biriga yordamlashish, qo'llab-quvvatlash xislatlarini tarbiyalashi lozim. Buning uchun «Qoch, bolam, kalxat keldi», «Pir-r etdi», «Ikki yaxob», «Mushuk keldi» va boshqa o'yinlardan foydalansa bo'ladi. Maktabda tayyorlov guruhlari, bog'cha yoshidagi bolalarga harakatli o'yinlarni tanlab olishda ularning qiziqishini hisobga olish zarur. Bu yoshdagi bolalarni o'yinlardagi bo'ri, qo'zi, sichqon, mushuk qiyofasi, surati, nimalar qilishi qiziqtirmaydi. Aksincha ularning hatti-harakati, masalan, mushukning chaqqonlik bilan sichqonni ushlab olishi qiziqtiradi. O'yinlarda harakatlar murakkablashib boradi. Masalan, «Bo'rilar zovurda» o'yinida bolalar yugurib kelib, to'xtab qolishi, so'ngra sakrab, chaqqonlik bilan bo'rilarga tutqich bermasdan zovurdan o'tib ketishi kerak. Bu yoshdagi bolalar uchun ikki tomon bo'lib o'ynash, qarama-qarshilikning mavjud bo'lishi ko'proq qiziqarlidir. Masalan, «Ikki yaxob» o'yinida bir tomon – «yaxob»lar bolalarni «muzlatib» qo'yishga intiladi va boshqa tomon «muzlatilib» qolishdan qochishga harakat qiladilar. Bog'cha bolalari bilan turli estafetalarni uyushgan holatda o'tkazish oson emas. O'yin-estafetani o'tkazish bir qaraganda oson tuyuladi, lekin bolalar o'yinlarini kuzatish natijasi shularni ko'rsatadiki, bunaqangi o'yinlar bolalar uchun hech qanday tushuncha bermaydi. Oqibatda ular bolalarda tartibning buzilishiga, sabrsizlik, betoqatlik, xunob bo'lishlik, bir-birini turtish, asabiylikka olib kelishi mumkin. O'yinda yutqazgan hamda g'olib chiqqan guruh bolalarini o'yin tugagandan keyin tinchlantirish juda murakkab kechadi. Maktabgacha tayyorlov guruhidagi bolalar tarbiya talab bo'lgani uchun ham ularda sezgirlik, tez yugurish, chaqqonlik bilan narsalarni uzatish, olib berish kabi ko'nikmalar hali hosil bo'limganligi hamda guruh oldida mas'uliyat hissi shakllanmaganligi, bir xatti-harakatni aniq baholay bilmasligi, boshqalarning harakatini ham yaxshi tushuna olmasligi kuzatiladi. Bu fazilatlar va jismoniy sifatlar yetishmaganligi uchun ham ularni tarbiyalash lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarning hozircha o'zini yaxshi tuta bilmasligini e'tiborga olib, guruhlarni ikki jamoaga emas, balki 4-5 guruhlarga ajratib olish zarur. Bu guruhlar ketma-ket holatda turmay, bir-birini yaxshi ko'rib turishi uchun o'tirib olishi ham mumkin. Chunki navbatli bilan startga chiqish tartibini saqlab turadilar. Bunday o'yinlarda bolalar bir-birini kuzatadi, har bir guruhdan bitta ishtirokchi tezlikda, chaqqonlikda, aniq nishonga otishda mahoratini ko'rsatadi. G'olib chiqqan o'yinchi o'z jamoasiga ochko keltiradi.

O‘yin tugagandan so‘ng to‘plangan ochkolar hisoblab ko‘riladi. Eng ko‘p ochko to‘plagan jamoa g‘olib deb topiladi. O‘yinni tashkil etishda barcha shart-sharoitlar to‘g‘ri hisobga olinsa, uning tarbiyaviy ahamiyati oshib boradi. Buning uchun o‘yin paytida bo‘ladigan chiziqlar, chegaralar masofalari, kerakli o‘yin ashyolari: koptok, bayroqcha kabilar taqsimlab berilishi lozim. Keyinchalik esa bolalarni o‘z-o‘ziga xizmat qilishga odatlantirish kerak. Ko‘pincha tarbiyachi bu tashkiliy ishlarni bolalardan biri yoki ikkisiga navbatchi sifatida topshiriq berib o‘rgatadi, shunda har safar navbatchi almashtirib turiladi. Tarbiyachi o‘yin o‘tkazishdan oldin uni qanday tushuntirishni o‘ylab ko‘rishi kerak. Tushuntirish juda qisqa, aniq, lo‘nda bo‘lishi kerak. O‘yin mazmuni, qoidalarini tushuntirishda mayda gaplardan xoli bo‘lish zarur. Undan keyin o‘yinchilardan kim qaysi yerda turishini aytib o‘tish kerak. Bolalarga tanish o‘yinni o‘tkazishda har gal to‘liq tushuntirish shart emas, ammo o‘yin qoidasini tarbiyachining o‘zi ta’kidlab o‘tishi zarur. O‘yin qoidasini bajarishda tezzez xatoga yo‘l qo‘ygan bolani ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘yin o‘tkazilayotgan vaqtida tarbiyachi faqatgina kuzatuvchi bo‘lib qolmasligi kerak. O‘yinni shunday o‘tkazish kerakki, bolalar undan quvonib, qanoat hosil qilib, murakkab qoidalarni o‘rganib olishsin. Tarbiyachi o‘yin davomida qatnashuvchilarni kuzatib, 9 alohida bolalarga e’tibor berib, gohida rag‘batlantirib, gohida qoida buzganlarga tanbeh berib, rahbarlik qilishi kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida milliy harakarli o‘yinlari maktabgacha yoshdagи bolalarga o‘zgacha quvonch ulashadi, ularning kayfiyatiga ijobiy ta’sir etadi. Bolalar orasida qo‘llana oladigan va bolalar zavq bilan o‘ynaydigan o‘yinlar:

1.Arqon tortish. Bu o‘yin bolalarda tez harakat qilishni, chaqqonlikni, sabr-toqatlik bilan harakat qilishni tarbiyalaydi. O‘yin ko‘proq jamoa bo‘lib harakat qilish, chidamlilik malakalarini oshirishga yordam beradi.

2.Oq terakmi, ko‘k terak. O‘yin tez yugurishni, diqqatni, sezgirlikni rivojlantirishga yordam beradi. O‘yin bolalarni ahil bo‘lib harakat qilishga, tezda to‘g‘ri yo‘nalishni olishga o‘rgatadi. O‘yinni o‘ziga xos harakati tez yugurish va zanjjiri uzish. **3.Tapur-tupir qaldirg‘och.** Katta yosh guruh bolalari uchun. O‘yin bolalarda sezgirlik, idrok qilish, eshitish va qabul qilish, chidamkorlik, kuch, tezkorlik, qayishqoqlikni rivojlantirishga yordam beradi. O‘yinni o‘ziga xos harakati sekin va aniq yurishdir. **4.Echki bolalar.** O‘rta yosh guruh bolalari uchun. O‘yin bolalarda diqqat, sezgirlik malakalarini tarbiyalaydi. O‘yin bolalarda chaqqonlik, tezlik, chidamlilik, koordinatsiya harakatlarini rivojlantiradi. O‘yinning asosiy harakati yugurish hisoblanadi.

5. Qidirib top kichik yosh guruh bolalari uchun. O‘yin bolalarda diqqat-e’tibomi, sezgirlik qobiliyatlarini tarbiyalaydi. Bolalar bog‘chalarida bolalar turli yosh guruhlariga bo‘linib, ulari kichik, o‘rta va katta guhurlar deb aytishga odatlanilgan. Chunki bolalarning jismoniy holati, o‘sish darajasi, harakat malakalari va umuman,

tana a'zolaridagi funksiyalar vazifalari tarbiya jarayonlarini belgilaydi. Shunga asosan, jismoniy tarbiyani tashkil qilishda guruhlardagi amaliy harakatlar bir-biridan tubdan farq qiladi. Kichik guruhda mazmuni va qoidasiga ko'ra sodda bo'lgan mazmunli va mazmunsiz harakatli o'yinlar tashkil etiladi. Bu o'yinlarda barcha bolalar bir xil rol yoki harakat topshirig'ini tarbiyachining bevosita ishtirokida (barcha bolalar – qushchalar, tarbiyachi – ona qush bo'ladi) bajaradilar. 3 yoshli bolalar asta-sekin yakka holda rollarni bajarishga o'rgatib boriladi (barcha bolalar qushlar, bitta yoki ikkita bola avtomobil bo'ladi). O'rta guruhda eng oddiy musobaqa usulidagi o'yinlarni yakka tarzda ham, jamoa tarzda ham o'tkazish mumkin Katta guruhda bolalar uchun harakatli o'yinlar o'z mazmuni, qoidalari, rollarning miqdori, topshirishni jamoa musobaqasiga joriy etishga ko'ra murakkablashtiriladi. Maktabga tayyorlov guruhi bolalari birmuncha murakkab harakatli o'yinlar, shuningdek jamoa musobaqalaridan iborat jamoa o'yinlarni, o'yin estafetasi, sport o'yinlarini o'ynaydilar. Bularning hammasi chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilikni rivojlanishi, harakat ko'nikmalrining takomillashuviga, axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Milliy xalq o'yinlari maktabgacha yoshdagи bolalarga o'zgacha xushnudlik ulashadi, ularning kayfiyatiga ijobjiy ta'sir etadi. U bolalarning jismoniy, aqliy, axloqiy rivojlanishida, kuchli, chaqqon, topqir, farosatli, mard insonlar bo'lib kamol topishida katta ahamiyat kasb etadi. Mustaqil yurtimiz kelajagi buyuk bo'lishi eng avvalo farzandalari salomatligiga bog'liq sog'lom yurt qudratli va boy bo'ladi. O'yin faoliyatida diqqatni, idrokni rivojlantirish, ilgari hosil qilingan tasavvur, tushunchalar, mo'ljal olish singari xususiyatlarni yana ham aniqlashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi; o'yinlar ijodiy tasavvurni, xotirani, fikrlashni, tafakkur faoliyatini yana ham rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib harakatli o'yinlar bolaning aqliy rivojlanishiga xizmat qiladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Xalq o'yinlarida bolaning har tomonlama rivojlanishi, psixologik, bilish jarayonlari, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatları takomillashadi. O'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, balki bolaning xulq - atvoriga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. O'yin faoliyati tufayli bola nafaqat jismoniy balki ruhiy tomonidan ham rivojlanadi. O'yin tufayli bola baquvvat, sog'lom, bo'lib rivojlansa, o'yin faoliyatini tabiat qo'ynida tashkil etish esa bolaning estetik rivojlanishi, dunyoqarashini kengayishi, tabiatni his qilish, sezish kabilarni hisiyotlari rivojlantiradi. Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirishning yoshga bog'liq xususiyatlari o'tkazilgan tajribalar orqali aniqlandi va nazariy jihatdan asoslاب berildi. Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida harakatli o'yinlarni qo'llash bolalarning harakat imkoniyatlarini, jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ularning kichik maktab yoshi davriga o'tish uchun tayyorgarligi sifatini oshiradi.

XULOSA

Harakatli o'yinlar bolalarni bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etib, biror foydali mashg'ulotga o'rganishlari, sog'lom o'sishlari, qat'iyatli bo'lishlariga yordam bera olishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.. Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida harakatli o'yinlarni qo'llash bolalarning harakat imkoniyatlarini, jismoniy tayyorgarligini rivojlanтирishga yordam beradi, shuningdek, ularning kichik maktab yoshi davriga o'tish uchun tayyorgarligi sifatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tkaziladigan harakatli o'yinlar F.Xo'jayev 13 bet
2. Milliy va harakatli o'yinlar. Darslik. / T.S. Usmanxodjayev
3. Bazhenova OV. Bolalar uchun hissiy-irodaviy rivojlanishni o'rgatish. SanktPeterburg: Rech; 2010. p. 192
4. <https://azkurs.org/harakatli-oynarlarni-tashkil-etish-va-o>
5. O'zbekiston Respublikasi Ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari – 2018 y. Registr. № 3032 03.07.2018 dan.
6. Grosheva I.V., Yevstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Djanpeisova G.E. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. maktabgacha ta'lim muassasalari uchun. 2018 y.
7. Usmonxo'jayev, M.Tirova, X.Sagdiyev, T.Sharipov "Kichkintoylarga 200 ta harakatli o'yinlar" Toshkent "Yangi asr avlodи" 2009